

CHET TIL O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

**Berdiyeva Dildora JDPI 4-bosqich
talabasi. dildora.berdiyevainbox.ru**

Ilmiy maslahatchi Sh.X. Djabbarov

***ANNOTATSIYA.* Ushbu maqola bugungi kunda yosh avlodning ta'lif olish tizimi xususan xorijiy tillar sohasiga bo'lgan etibor va bu tizimda qilinayotgan islohotlar**

***KALIT SO'ZLAR:* innovatsion texnologiyalar, malakali oqituvchi, ta'lif muassasasi, interaktiv o'qitish, president qarorlari, islohot.**

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lif sohasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa xorijiy tillar sohasini yanada ommalashtirish va yosh avlodni til o'rghanishiga bo'lgan layoqatini yanada oshirish bugunning asosiy mavzularidan biridir. Shu sababli ham yurtimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun bir qancha farmon va farmoishlar, qonunlar ishlab chiqilmoqda. Albatta bunday qonun loyihamalarini amalda qo'llash uchun malakali pedagogik xodimlar juda zarur. Shu sababli ham yurtimizdagи barcha oliy ta'lif muassasalarining bakalavriyat bosqichi talabalari o'quv davri mobaynida pedagogik amaliyot o'tashga va malakalarini yanada oshirishga safarbar etilmoqda. Shu qatori biz xorijiy tillar fakulteti 4-bosqich talabalari ham o'z bilimlarimizni yanada mustahkamlash va tajriba o'rghanish maqsadida ta'lif muassasalarida amaliyot o'tadik.

Pedagogik amaliyot bu talaba (yoki bo'lajak pedagog xodim) o'z bilimini va dunyoqarashini yanada boyitishi, amaliyotda qo'llashi va tajriba oshirishi uchun tashkil qilingan jarayon. Biz ham ushbu jarayonda faol qatnashdik. Ikki yarim oy davom etgan pedagogik amaliyotda maktab jamoasi bilan ishlash, maktab ichki tartib qoidalariga rioya qilish, darsni samarali tashkil qilish, dars jarayoni uchun turli o'qitish metodlari, yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llash, shuningdek, darsni noan'anaviy tarzda tashkil qilish va interaktiv o'qitish uslublaridan foydalanish va eng muhimi pedagog sifatida o'quvchilar bilan to'g'ri va samarali aloqa o'rnatishni o'rgandik. Albatta bunda o'z bilim va tajribalarini biz bilan o'rtoqlashgan o'qituvchilarning xizmatlari katta.

Mana shu qisqa vaqt davomida o'zimizni xuddi o'qituvchidek tasavvur qilib, bilimlarimizni sinab ko'rdik, tajriba orttirdik. Albatta nazariy olgan bilimlarimiz bizga ushbu davrda anchayin asqotdi ammo tan olish kerakki nazariya va amaliyot umuman boshqa boshqa masala. Amaliyotda faqatgina bilim emas balki muomila

madaniyati, jamoa bilan ishlash, o'quvchilar bilan ishslash kabi muhim tushunchalar ham bor. Ularsiz malakali pedagog bo'lish qiyin nazarimda. Shu sababli ham har o'quv yilida biz talabalar uchun pedagogik amaliyat tashkil qilinayotgandir. Bu nafaqat biz uchun va biz orqali kelgusi yosh avlod uchun ham qilinayotgan etibor nishonasidir. Chunki malakali va yetuk o'qituvchilar kelajagi bardavom, bilimli, zukko yoshlarni tarbiyalaydi. Ushbu o'rinda birinchi prezidentimiz I. Karimovning ushbu so'zlari yodimga keldi. "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot yo najot yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk marifatparvarning ushbu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarb bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir". To'g'ri hozirgi kunda ham talim tarbiya masalasi o'z ahamiyatini yo'qotmagan balki yanada etibor qaratilayotgan sohalardan biriga aylangan. "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech o'g'ishmasdan, qatiyat bilan davom ettiramiz .Nafaqat davom ettiramiz ,balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va manaviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz". Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning ushbu so'zlari fikrimning yana bir dalilidir.U kishining tabiri bilan aytganda hech kimdan qolishmaydigan yosh avlodni tarbiyalash eng dolzarb masala. Shu o'rinda ayniqsa yoshlarni jahon miqyosiga chiqo olishi uchun xorijiy tillarni o'rganishi uchun qilinayotgan say harakatlar taqsinga sazovor. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishi ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sон qarori buning yaqqol misolidir. Unga ko'ra yosh avlodni til o'rganishga bo'lgan imkoniyatlarini oshirish va buni taminlab berish nazarda tutilgan. Unda o'quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishi orqali ularning dunyoqarashi kengayishi, salohiyati oshishi hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlash va ta'lim jarayoniga malakali professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalarni jalb qilish choralarini ko'rish hamda ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil qilish va boshqa bir qator qarorlar kiritilgan. Bundan ko'rinish turibdiki yoshlarga, ularning ta'lim tarbiyasiga berilayotgan e'tibor mamlakatimizda juda ahamiyatli sohalardan biri.

Xulosa qiladigan bo'lsam, biz yoshlarga qilinayotgan bunday g'amxo'rliklar, berilayotgan imkoniyatlar biz yoshlar va bizning kelajagimiz uchun qilinayotgan

eng ulug'vor ishlardir. Talaba sifatida shuni aytishim kerakki, bugung ta'lismiz tizimi va undagi har bir bosqich o'quv jarayoni yoki pedagogik amaliyot jarayoni men uchun juda ahamiyatli va muhim. O'quv jarayoni orqali bilimlarimni oshirsam, pedagogik amaliyot yordamida tajriba orttirayapman. Bunday ishlar yosh pedagog xodimlarni yanada malakali va bilimli bo'lib, yosh avlodga sifatli ta'lismiz berishini taminlaydi albatta. Mana shunday puxta o'ylangan tizim orqali yetuk va malakali mutaxasis bo'lib yetishishimga ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev" Erkin va farovon davlat barpo etamiz "14 bet Toshkent-O'zbekiston 2016.
2. I. Karimov "Barkamol avlod orzusi" Sharq nashriyoti Toshkent 1999.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rGANISHNI ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.
4. Djabbarov, S. (2020). Статья ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(53). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4561

Boshqa manbalar:

1. [https/ ziyo.uz](https://ziyo.uz)
2. [https/.lex.uz](https://lex.uz)
3. www.google.uz